JOURNAL OF INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH
Volume 5, Issue 5, June 2026 Online ISSN: 3030-3508
https://spaceknowladge.com

TILSHUNOSLIKDA STILISTIKANING NAZARIY ASOSLARI

Ostonaqulova Madinabonu
Oriental universiteti, Magistratura mutaxassisligi
Lingvistika (Ingliz tili) 1- kurs magistranti
Boboyeva Madina Xaydarovna
Tillar-2 kafedrasi dotsent v.b..,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

MAQOLA MALUMOTI

MAQOLA TARIXI:
Received:28.06.2026
Revised: 29.06.2026
Accepted:30.06.2026

KALIT SO'ZLAR:
stilistika, nutq uslubi, funksional uslub, til birliklari, ekspressivlik, lingvistika, badiiy vositalar.

ANNOTATSIYA:

Mazkur maqolada tilshunoslikda stilistika fanining nazariy asoslari, uning predmeti, vazifalari va boshqa lingvistik yo'nalishlar bilan aloqasi tahlil qilindi. Shuningdek, stilistik vositalarning turlari, funksional uslublar va ularning nutq jarayonidagi o'rni ilmiy asosda yoritildi. Bundan tashqari, stilistikaning zamonaviy yo'nalishlari va tadqiq metodlari ko'rib chiqildi.

KIRISH

Bilamizki, til jamiyatning eng muhim kommunikativ vositasi sifatida nafaqat axborot uzatish, balki insonning fikrlash jarayoni, dunyoqarashi va madaniy qadriyatlarini ifodalashda ham muhim rol o'ynaydi. Shu bois zamonaviy tilshunoslikda tilni faqat struktur birliklar yig'indisi sifatida emas, balki uning real nutq jarayonidagi funksional imkoniyatlari bilan birgalikda o'rganish zarurati ortib bormoqda. Ana shunday yondashuv stilistika fanining shakllanishi va rivojlanishiga asos bo'lgan[1]. Stilistika til birliklarining tanlanishi, ularning muayyan nutq sharoitida qanday ma'no va ta'sir kuchiga ega bo'lishini o'rganadi. U tilning ichki imkoniyatlarini ochib berish bilan birga, nutq samaradorligini oshirish, kommunikativ maqsadga erishish va estetik ta'sirni kuchaytirish masalalarini ham qamrab oladi. Shu jihatdan stilistika lingvistika, adabiyotshunoslik, psixologiya va pragmatika kabi fanlar kesishgan nuqtada rivojlanayotgan integrativ soha hisoblanadi.

Mavzuning dolzarbligi

Bugungi globallashuv, axborot oqimining keskin ortishi va kommunikatsiya shakllarining xilma-xillashuvi sharoitida nutqning aniqligi, ta'sirchanligi va moslashuvchanligi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, ilmiy, rasmiy va ommaviy kommunikatsiyada til vositalaridan o'rinli foydalanish zarurati ortib bormoqda. Shu sababli stilistika masalalarini nazariy va amaliy jihatdan o'rganish dolzarb ilmiy muammolardan biri hisoblanadi[2]. Bundan tashqari, o'zbek tilshunosligida stilistika sohasida qator tadqiqotlar olib borilgan bo'lsa-da, zamonaviy lingvistik yondashuvlar — xususan, kognitiv va pragmatik stilistika nuqtai nazaridan kompleks tahlillar yetarli darajada rivojlanmagan. Bu esa mazkur mavzuni yanada chuqur o'rganish zaruratini yuzaga keltiradi.

Tadqiqotning maqsadi

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi stilistikaning nazariy asoslarini tizimli ravishda tahlil qilish, uning predmeti, kategoriyalari va zamonaviy yo'nalishlarini ilmiy jihatdan asoslab berishdan iborat.

Tadqiqot maqsadini ochib berish uchun stilistikaning ilmiy mohiyatini aniqlash; uning asosiy kategoriyalarini tavsiflash; funksional uslublar tizimini tahlil qilish; stilistik vositalarning nutqdagi rolini ochib berish; zamonaviy stilistika yo'nalishlarini baholash kabi vazifalar belgilandi.

METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqot kompleks yondashuv asosida amalga oshirildi. Xususan, stilistika ko'p qirrali soha bo'lgani sababli, uni o'rganishda birgina metod bilan cheklanib qolish yetarli emas. Shu bois ish jarayonida bir nechta ilmiy metodlar uyg'un holda qo'llanildi. Tavsifiy metod yordamida stilistikaning asosiy tushunchalari, kategoriyalari va birliklari izchil bayon qilindi. Ushbu metod nazariy asoslarni tizimlashtirishda muhim rol o'ynadi. Qiyosiy-tahliliy metod esa turli lingvistik maktablar - xususan, o'zbek, rus va g'arb tilshunosligi doirasida stilistika masalalariga berilgan ta'rif va yondashuvlarni solishtirish imkonini berdi[3]. Lingvistik kuzatuv metodi orqali real nutq namunalarida stilistik vositalarning qo'llanishi tahlil qilindi. Bu usul nazariy qarashlarni amaliy material bilan bog'lashga xizmat qildi. Matn tahlili metodi esa turli funksional uslublarga mansub matnlarda stilistik birliklarning qanday ishlashini aniqlash imkonini berdi. Metodologik jihatdan tadqiqot funksional lingvistika, pragmatika va kognitiv tilshunoslik nazariyalariga tayandi. Bu esa stilistik hodisalarni faqat formal emas, balki kommunikativ va semantik jihatdan ham chuqur tahlil qilish imkonini yaratdi.

NATIJALAR

Tadqiqot ishini o'rganish davomida stilistikaning nazariy asoslari tizimli ravishda o'rganilib, bir qator muhim xulosalarga kelindi.

Avvalo, stilistikaning predmeti sifatida til birliklarining nutqdagi funksional va ekspressiv xususiyatlari aniqlashtirildi. Ma'lum bo'ldiki, har qanday til birligi kontekstdan tashqarida neytral bo'lishi mumkin, biroq nutq jarayonida u muayyan stilistik yuklama kasb

etadi. Shuningdek, stilistikaning asosiy kategoriyalari o‘zaro bog‘liq tizim sifatida namoyon bo‘lishi aniqlandi. Uslub, ekspressivlik, emotsionallik va baholovchanlik nutqning umumiy ta’sir kuchini belgilovchi omillar sifatida qaraladi. Funksional uslublar tahlili natijasida ularning har biri o‘ziga xos til vositalari va ifoda mexanizmlariga ega ekanligi tasdiqlandi. Xususan, ilmiy uslub - aniqlik va mantiqiylik bilan; rasmiy uslub - standartlik va qat’iylik bilan; badiiy uslub — obrazlilik va estetiklik bilan ajralib turadi[5]. Bundan tashqari, stilistik vositalarning ko‘p darajali tizim ekanligi aniqlandi. Ular fonetik, leksik va sintaktik darajalarda amal qilib, nutqning umumiy mazmuni va ta’sirchanligini shakllantiradi.

MUHOKAMA

Olingan natijalarga ko‘ra stilistikaning tilshunoslikdagi o‘rni va ahamiyati juda keng ekanligini bemalol ayta olamiz. Ayniqsa, zamonaviy kommunikatsiya sharoitida nutqning samaradorligi ko‘p jihatdan stilistik vositalardan to‘g‘ri foydalanishga bog‘liqdir. O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, stilistika faqat nazariy fan emas, balki amaliy jihatdan ham muhim ahamiyatga ega hamdir. U nutq madaniyatini shakllantirish, professional kommunikatsiyani rivojlantirish va matn yaratish jarayonini takomillashtirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi[6]. Zamonaviy yondashuvlar stilistikaga o‘zining katta ta’sirini o‘tkizmoqda ya’ni uni yangi bosqichga olib chiqmoqda. Xususan, kognitiv stilistika til va tafakkur o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganishga e’tibor qaratadi, pragmastilistika esa nutqning maqsadga yo‘naltirilganligini tahlil qiladi. Bu esa stilistik tadqiqotlarning ko‘lamini sezilarli darajada kengaytiradi.Shu bilan birga, stilistik kategoriyalarni aniqlash va ularni mezonlash masalasi hali ham dolzarb muammo bo‘lib qolmoqda. Bu esa kelgusida yanada chuqur ilmiy izlanishlar olib borishni talab etadi.

XULOSA

Yakuniy tahlillarga tayangan holda shuni ayta olamizki, stilistika tilshunoslikning muhim va istiqbolli yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. U til birliklarining nutqdagi funksional va estetik xususiyatlarini o‘rganish orqali tilning boy imkoniyatlarini ochib beradi. Mazkur tadqiqot stilistikaning nazariy asoslarini tizimli ravishda yoritib berdi va uning asosiy kategoriyalari, metodlari hamda zamonaviy yo‘nalishlarini aniqlash imkonini yaratdi. Natijalarga ko‘ra stilistika ko‘p darajali va integrativ tizim bo‘lib, u turli lingvistik yo‘nalishlar bilan uzviy bog‘liq ekanligi aniq bo‘ldi. Kelgusida stilistika sohasidagi tadqiqotlarni yanada rivojlantirish, ayniqsa, raqamli kommunikatsiya va diskurs tahlili doirasida chuqurlashtirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mahmudov N. Til va nutq madaniyati. – Toshkent: O‘qituvchi, 2010.
2. Nurmonov A. Lingvistik tadqiqot metodlari. – Toshkent: Fan, 2012.
3. Qodirov Z. O‘zbek tilining funksional uslublari. – Toshkent: Fan, 2005.

4. Shomaqsudov A., Rasulov I., Qo‘ng‘urov R., Rustamov H. O‘zbek tili stilistikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1983.
5. Mirtojiev M. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2004.
6. Yo‘ldoshev B. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. – Toshkent, 2016.
7. Galperin I.R. Stylistics. – Moscow: Higher School, 1977.
8. Arnold I.V. Stylistics. Modern English Course. – Moscow: Flinta, 2002.
9. Leech G., Short M. Style in Fiction: A Linguistic Introduction to English Fictional Prose. – London: Pearson, 2007.